



## **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA SAVODXONLIKNI SHAKLLANTIRISHDA INTEGRATIV YONDASHUVNING AHAMIYATI.**

**Sharipova Sarvinoz Abdumajidovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi.  
furqatnorqobilov588@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17347052>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida savodxonlik ko'nikmalarini shakllantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati yoritilgan. Til o'rganish jarayoni boshqa fanlar bilan bog'liq holda olib borilganda, o'quvchilar bilimni yaxlit qabul qiladi, mantiqiy fikrlash, tushunish, va ifodalay olish qobiliyatlari yanada rivojlanadi. Maqolada ona tili darslarini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish usullari, faol metodlar, amaliy misollar va kuzatilgan natijalar haqida so'z boradi. Shuningdek, integrativ yondashuvning o'quvchilarning ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirishdagi o'rni tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** savodxonlik, boshlang'ich ta'lim, integrativ yondashuv, ona tili darslari, o'qish va yozish, fanlararo bog'liqlik, metodika, ta'lim samaradorligi.

**Annotation :** This article explores the importance of an integrative approach in developing literacy skills among primary school students. When language learning is combined with other subjects, students tend to perceive knowledge as a whole, which enhances their logical thinking, comprehension, and expression skills. The paper discusses methods of integrating mother tongue lessons with other subjects, effective teaching strategies, practical examples, and observed results. It also highlights how this approach increases students' engagement and motivation in the learning process.

**Keywords:** literacy, primary education, integrative approach, mother tongue lessons, reading and writing, interdisciplinary connection, methodology, learning effectiveness.

**Аннотация :** В данной статье рассматривается значение интегративного подхода в формировании грамотности у учащихся начальных классов. Изучение родного языка в тесной связи с другими предметами способствует формированию целостного восприятия знаний, развитию логического мышления, понимания текста и навыков выражения мыслей. В статье представлены методы интеграции уроков родного языка с другими дисциплинами, эффективные педагогические приёмы, практические примеры и полученные результаты. Также анализируется влияние интегративного подхода на повышение интереса учащихся к обучению.

**Ключевые слова:** грамотность, начальное образование, интегративный подход, уроки родного языка, чтение и письмо, межпредметные связи, методика, эффективность обучения.

**Kirish:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida savodxonlikni shakllantirishda integrativ yondashuvning ahamiyati shundaki, bu usul turli fanlar, jumladan, ona tili, matematika, atrof-olam bilan tanishish va tasviriy san'atni bir-biriga bog'lab, o'quvchilarning savodxonlik ko'nikmalarini yanada chuqurroq va kengroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Integrativ yondashuv o'qish, yozish, fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirib, bilimlarni amaliy qo'llashga undaydi, bu esa o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va savodxonlikning mustahkam asosini yaratadi. Turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlik o'quvchilarga

dunyoni yaxlit qabul qilishga yordam beradi va o'rgangan bilimlarining amaliy ahamiyatini tushunishini osonlashtiradi. Matnlarni o'qish va tushunishni o'rganadilar, bu esa ko'plab fanlarda yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga imkon beradi. O'z fikrlarini matn shaklida ifodalash ko'nikmasini shakllantiradi. O'z fikrlarini aniq va to'g'ri bayon eta boshlaydilar.

Tahlil va natijalar: **Integrativ yondashuv** — bu bir nechta fanlarning o'zaro bog'liq holda, yagona maqsad sari yo'naltirilgan holda o'rgatilishini anglatadi. Boshlang'ich sinflarda bu yondashuv ayniqsa samarali, chunki o'quvchilar hali aniq fanlarga ajratilgan bilimlardan ko'ra, yaxlit bilim olishga moyil.

**Ona tili** esa barcha fanlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi — tushunish, ifodalash, savol-javob qilish, muloqot qilish, matnni anglash, yozish va h.k.

Misol uchun, o'qituvchi "Ko'klam" mavzusida dars o'tganda, ona tili darsida ko'klam haqidagi she'rni o'qib, tahlil qilsa, matematika darsida ko'klamda o'sadigan gullarning sonini sanashga oid topshiriq bersa, atrof-olam bilan tanishish darsida ko'klamda gullaydigan o'simliklar haqida ma'lumot bersa, tasviriy san'at darsida esa ko'klam manzarasini chizishni taklif qilsa, o'quvchilar savodxonlikning barcha jihatlari bilan birga, tabiat hodisalarini ham to'liqroq tushunib oladilar. Hozirgi kunda har bir fanni bir biri bilan bog'lash jahon davr talabidir. Chunki, bir fan ikkinchi fandagi savollarni, masalalarni yechishda bir vosita hisoblanar ekan. O'quvchilarni yanada dars jarayoniga qiziqtirish uchun ular bilan turli xil o'yinlar va metodlar o'tkazish lozim. Integratsion metodlar o'quvchilarda doimiy faollikni ta'minlaydi. O'quvchilar dars davomida bo'sh qolmaydilar, ular mavzuga oid biror bir muammo bilan band bo'ladilar. Natijada esa zerikish holatini oldi olinadi. Integratsion metodlardan foydalanishda o'qituvchi, eng avvalo, darsning texnologik loyhasini tuzib olishi lozim va o'quvchilarni darsga jalb qilishi lozim. Integrativ yondashuvda fanlararo bog'liqlik, hayotiy faoliyatga yo'naltirish, muammoli vazifalar orqali ta'lim berish muhim hisoblanadi. Misol uchun, ona tili darsida o'qilgan hikoya asosida tabiatshunoslikda o'rganilgan mavzuni mustahkamlash mumkin. Shu orqali bolada nafaqat bilim, balki ijtimoiy ong – masalan, tabiatga nisbatan mas'uliyat hissi ham shakllanadi. : Integrativ yondashuv asosida olib borilgan ta'lim jarayoni ijtimoiy ongni rivojlantirishda samarali vosita bo'la oladi. Fanlararo bog'liqlik, hayotiylik, shaxsiy tajriba orqali o'quvchilarda boshqalarga nisbatan empatiya, mas'uliyat, madaniyat, axloqiy ong kabi ijtimoiy fazilatlar rivojlanadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida bu kabi yondashuvni joriy etish, o'quvchilarning ijtimoiy ongli shaxs bo'lib yetishishiga zamin yaratadi. Integrativ metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ongni shakllantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Fanlararo bog'liqliklar asosida tashkil etilgan darslar bolalarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularni ijtimoiy faol, ongli fuqarolar etib tarbiyalaydi.

**Xulosa:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida savodxonlikni shakllantirish ta'lim jarayonining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda o'qish, tushunish, fikr bildirish va yozma ifoda kabi ko'nikmalar izchil rivojlantirilishi lozim. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ona tili darslarini boshqa fanlar bilan integratsiya qilish, ya'ni fanlararo bog'liqlik asosida tashkil etilgan darslar savodxonlikni samarali shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Integrativ yondashuv o'quvchilarning tafakkurini kengaytiradi, bilimlarni hayot bilan bog'lashga yordam beradi va o'qishga bo'lgan qiziqishni oshiradi. Ayniqsa, darslarda amaliy faoliyat, o'yinli metodlar, loyiha ishlari va muammoli topshiriqlardan foydalanish



o'quvchilarni faollashtirib, ularning mustaqil fikrlash va nutqiy faolligini kuchaytiradi. Shu bois, boshlang'ich sinfda savodxonlikni shakllantirishda integrativ yondashuvni keng joriy etish, metodik tavsiyalar asosida yangi dars ishlanmalarni ishlab chiqish va o'qituvchilarning malakasini oshirish bugungi kundagi dolzarb vazifalardan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullaeva, M., & Rajabova, D. (2020). Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. Daminova, D.M. "BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI NUTQIY FAOLIYATIDA INTEGRATIV YONDASHUVINI AHAMIYATI".
3. Komiljonova .S.G. "INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARIDA IJTIMOVIY ONGNI RIVOJLANTIRISH".
4. Niyozova .D. "Boshlang'ich ta'limda integratsion yondashuv